

"O'ZKIMYOSANOAT" AJ TARMOQ KORXONALARIDA 2022 YIL MOLIYAVIY-IQTISODIY KO'RSATKICHLARINI SIFATLI BAJARILISHINI TA'MINLASHGA BAG'ISHLANGAN VIDEOKONFERENSIYA YIG'ILISHI BO'LIB O'TDI

// 22 December 2022 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/uzkimyosanoat-aj-tarmoq-korxonalari-moliyaviy-iqtisodiy-korsatkichlar-videokonferensiya>



Joriy yilning 22-dekabr kuni "O'zkimyosanoat" AJ tarmoq korxonalari kesimida moliyaviy-iqtisodiy holatlarning barqarorligini ta'minlash, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish hamda muammolarning yechimi bo'yicha tegishli choralarni qabul qilish yuzasidan videokonferensiya yig'ilishi bo'lib o'tdi.

"O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisi o'rinbosari Akobir To'xtayev tomonidan o'tkazilgan yig'ilish davomida 2022-yilda biznes rejalarida belgilangan moliyaviy ko'rsatkichlarga erishish, xalqaro moliyaviy institutlardan va mahalliy tijorat banklaridan jalb qilingan kredit majburiyatlarini so'ndirish va kelgusida

muddati keladigan davlat tashqi qarzlarga belgilangan reja jadval asosida mablag'larni jamg'arib borish, debitor-kreditor qarzdorliklarni qisqartirish, davlat budjetiga to'lovlar intizomini mustahkamlash, ishlab chiqarish jarayonidagi xomashyo va materiallar iste'moli uchun to'lovlarni o'z muddatida amalga oshirish hamda ish haqi to'lovlarini o'z vaqtida to'lash bo'yicha "O'zkiyosanoat" AJ tarmoq korxonalari kesimida tizimli chora-tadbirlar belgilab olindi.

Shuningdek, "O'zkiyosanoat" AJ va tarmoq korxonalari 2021-yil 31-dekabrda yakunlangan moliyaviy yil konsolidatsiyalashgan va alohida moliyaviy hisobotlarini MHXS'larga muvofiq xalqaro audit standartlari asosida xalqaro katta to'rtlikka (big four) kiradigan "KPMG" xalqaro auditorlik tashkiloti tomonidan 2021-yil yakunlari bo'yicha audit jarayonlari yakunlandi va auditorlik xulosalari olindi.

Bugungi kunda "O'zkiyosanoat" AJ va tarmoq korxonalarining yakunlanayotgan 2022-yil bo'yicha konsolidatsiyalashgan va alohida moliyaviy hisobotlarni MHXS'larga muvofiq xalqaro audit standartlari asosida audit jarayonlari "KPMG" xalqaro auditorlik tashkiloti bilan birga amalga oshirilmoqda.

"O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati



uzkiyosanoat



uzkiyosanoat.uz



(+99878) 140-74-26







